

CHET TILLARINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI

Omina Muxiddinova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonimizda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektning dolzarb roli, uning ahamiyati va inson resurslarini u bilan almashtirish imkoniyatlariga to'xtalib o'tiladi. Unda yana bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan sun'iy intellektning sinf xonalari va auditoriyalarda, umuman olganda, ta'lim sohasida ishlatilinish istiqbollari qisqacha muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, chet tillari, chet tillarini samarali o'qitish, ingliz tili, axbarot texnologiyalar, o'quv jarayonini avtomatlashtirish.

KIRISH

Sun'iy intellekt innovatsion texnologiyalar bilan shakllangan yashash tarzimizni, hayotimizni bir qadar o'zgartirdi va o'zgaritirishda davom etmoqda. Sun'iy intellekt insoniyat hayotiga tez kirib keldi va jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini o'tkazib, aql bovar qilmaydigan o'zgarishlar yasay olish xususiyatiga ega. Uning kelib chiqishiga nazar tashlanadigan bo'lsa, sun'iy intellekt atamasi ilk bora 1956-yilda konferensiyada Jon Makkarti tomonidan foydalanilgan¹. XXI asrda tezlashgan texnologik taraqqiyot sharoitida hamma jabhalarda: iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, sport, bank, moliya, qishloq xo'jaligi, energetika, elektron hukumat, transport sohalariga kirib borganidek, ta'lim maydoniga ham jadal kirib bormoqda. Bu esa ta'limda, xususan, xorijiy tillarni o'rganish va aniq fanlar sohasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qildi. Chunki so'nggi yillarda ushbu fanlarning ahamiyati va ularga bo'lgan talab kundan-kunga sezilarli darajada oshib boryapti va jarayon modernizatsiyani talab qilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, bu sohada sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda AI. deb yuritiladi) foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Misol uchun, ingliz tilini o'rganishda yordam beradigan Semantris Duolingo, Kahoot, Talk me, Babble, Knowble, SpeakLab² kabi ilovalarda foydalanuvchidan so'zlarni tanlash va mobil yoki dasturiy qurilma orqali sun'iy intellekt bilan raqobatlashish talab qilinadi. Ilovalardan

¹ Warren, P. (no date) A brief history of artificial intelligence (1956 to now), Codementor. Available at: <https://www.codementor.io/@paulwarren/a-brief-history-of-artificial-intelligence-1956-to-now-mgoracvnx>.

² Mamadieva Bakhtiyor qizi, F., Mukhiddinova Sharofiddin qizi, O., & Abduraimov Anvar ogli, S. (2020). Digital pedagogy and online assessment in ESL. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS)*, 10(10), 201-204.

tashqari yana shuningdek bir qator til o'rgatuvchi platformalar FluentU, Puzzle English.com, Khan Academy English, Coursera va boshqalar ham aynan AI. tizimi asosiga qurilgan hisoblanadi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning rolini o'rganiladi: til o'rganuvchilari uchun AI. qanchalik muhim va AI. xorijiy tillarni o'rgatishda o'qituvchining o'rnini bosa oladimi kabi savollarga javob izlanadi.

Sun'iy intellektning xorijiy tillarni o'rganishdagi o'rni

O'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni tadbiq etish haqiqatda ham o'qituvchilar va talabalarga bilim olishda eng yaxshi natijalarga erishishda yordam berishi mumkin. Masalan, ingliz tilini onlayn o'rganishda sun'iy intellektning joriy etilishi allaqachon o'z samaradorligini isbotlagan. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning qulayligi va moslashuvchanligi o'qituvchilarni tobora ko'proq jalb qilmoqda. Chunki AI. yordamida istalgan miqdorda qayta-qayta audiolar eshitish, ko'rish, topshiriq-testlarni bajarish imkoni bor. Bundan tashqari raqamli texnologiya vositalari online musobaqalar, online progress, necha ball to'plaganlik haqida reytinglar doimiy ravishda namoyon etish qulayligiga ham ega. O'rganuvchi sog'lom raqobat asnosida ham yuqoriroq natijaga erishishga doimiy harakatda bo'ladi. Lekin virtual texnologiyalar yordamida doim ham bir xil – yaxshi natijalarga erishmaslik ham mumkin.

Raqamli texnologiyalar ta'limning shu paytgacha shakllangan, mavjud bo'lgan modelini butunlay o'zgartirdi. Birinchidan, talaba darsda hech qachon uxlamaydi, chunki darslar interaktiv va qiziqarli tarzda shakllantiriladi. Ikkinchidan, sun'iy intellektdan foydalanishda talaba o'quv jarayonini o'ziga moslashtirishi va individuallashtirishi mumkin, bunga an'anaviy darslarda to'liq erishib bo'lmaydi. Uchinchidan, AI. raqamlashtirilgan baholash tizimi o'qituvchiga o'qish kursini tezda o'ziga moslab sozlash, eng samarali ta'lim formatini tanlash imkonini beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt yordamida o'quv jarayoni yanada qiziqarliroq va samaraliroq kechadi, qog'ozdagi zerikarli yozilgan so'zlar va iboralar o'rniga, so'zlar interaktiv formatda o'rganiladi³.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, AI.ning o'zi hozirda jadal rivojlanish bosqichini boshidan kechiryapti. AI. tizimlari endi yetarlicha yuqori sifatli matn, audio va tasvirlarni yaratishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan Semantris odatda turli xil tabiiy tillar bilan ishlash uchun ishlatiladigan to'liq o'qitilgan "E2E" algoritmidan foydalanadi. Ya'ni neyrotarmoq leksemalar bilan ishlash modellarini mustaqil ravishda tuzadi. Dastlab, neyron tarmoq tabiiy tillardan misollar bo'yicha o'qitiladi, bu yerda

³ Pearson. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications. Retrieved from <https://www.pearson.com/content/dam/one-dot-com/one-dot-com/global/Files/news/news-announcements/2019>

har bir jumla, ibora yoki soʻzning tarjimasini, maʼnosi yoki boshqa yoki savol-javob juftligi oldindan berilgan boʻladi.

Biroq, bunday muhim yutuqlarga qaramay, mazmunli suhbat qurishda AI koʻnikmalari hali hanuz insonlar bilan quriladigan jonli “face-to-face” suhbatlardan juda yiroqdir. AI. oddiy jummalarning maʼnosini tushunishi va hatto ularga javob berishi mumkin boʻlsa-da, u baʼzi oʻrinlarda soʻzma-soʻz talqin bilan cheklangan. Kompyuter soʻzlarning taʼrifini bilishi mumkin, ammo kengroq kontekstda ularning xos maʼnosini odam faktorichalik tushuna olmaydi.

Yaʼni, inson ega boʻlgan soʻzga ijodiy munosabat, kreativlikdan AI mahrumdir. Har bir soʻzga nisbatan ijodiy yondoshish – bu odamning eng muhim qobiliyatlaridan biri sanalib, toʻgʻri, aynan oʻz oʻrnida va zukkolik bilan muloqot qilish, suhbatdoshini yorqin fikr bilan hayratda qoldirish imkonini beradi. Bularning barchasi oʻz navbatida insonni oʻz soʻzining egasiga aylantiradi hamda soʻzning “shirasi, qaymogʻi” ni tashkil qiladi. Bu esa auditoriyada oʻqituvchi va talabalar oʻrtasida mavjud boʻlishi zarur boʻlgan faktorlardan hisoblanadi.

Ammo shuni ham qayd etish zarurki, AI. haqiqiy suhbatdosh qarshisida bir qator afzalliklarga ega: ulardan biri javoblar tezligidir. Bu kabi oʻzaro muloqotda virtual miyada odam bilan muloqot qilishdagi uchraydigan baʼzi kechikishlar, pauzalar, ikkilanishlar va oʻylanishlar boʻlmaydi. Ammo shuni ham unutmaylikki, AI. va u asosiga qurilgan botlar faqat oddiy suhbatni qoʻllab-quvvatlashi va faqat toʻgʻri tanlangan kalit soʻzlar doirasidagina muhokamani bajarishga qodir. Umuman olganda, shu paytgacha mavjud boʻlgan zamonaviy botlarni hali “aqlli” deb atash qiyin. Ularning koʻpchiligi faqat tor doiradagi vazifalarni bajarishga qodir. Shuning uchun baʼzi ilovalarda AI. haqiqiy suhbatdoshni almashtirishga urinmaydi. Baʼzi ilovalarda esa AI. faqat faoliyatimiz haqida tavsiyalar berish uchun ishlatiladi. Tavsiyalar, oʻz navbatida, foydalanuvchining til darajasi va sevimli mashgʻulotlariga asoslanadi.

XULOSA

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xorijiy tillarni oʻrganishda sunʼiy intellektning oʻrni juda katta va shu bilan birga oʻsishda davom etmoqda. AI. taʼlim va chet tillarini oʻrgatish sohasida katta imkoniyatlarga ega. Gadgetlarga oʻrgangan va odatlangan avlod vakillari uchun bu uslub ham til oʻrganishda asqotadi.

2021-yilning 17 fevral kuni “Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi, koʻzlangan maqsad – “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qoʻllash, raqamli maʼlumotlarning yuqori sifatini taʼminlash, malakali kadrlar tayyorlash. sunʼiy intellektning chet tillarini

o'qitish sohasidagi yutug'i xorijiy tilni o'rgana olmaslik muammosiga yechim bo'ladi. Ingliz tili o'rganishda inson tomonidan ko'p vaqt sarflash orqali bajariladigan vazifalarni sun'iy intellekt bir necha soniya ichida bajaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamadieva Bakhtiyor qizi, F., Mukhiddinova Sharofiddin qizi, O., & Abduraimov Anvar ogli, S. (2020). Digital pedagogy and online assessment in ESL. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS)*, 10(10), 201-204.
2. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. (2018). *How People Learn II: Learners, Contexts, and Cultures*. National Academies Press. Retrieved from <https://www.nap.edu/catalog/24783/how-people-learn-ii-learners-contexts-and-cultures>
3. Pearson. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications*. Retrieved from <https://www.pearson.com/content/dam/one-dot-com/one-dot-com/global/Files/news/news-announcements/2019>
4. Semantris от Google: как ИИ помогает учить английский играючи [Электронный ресурс]. Сообщество IT-специалистов Хабр [официальный сайт]. URL: <https://habr.com/ru/company/englishdom/blog/520618/>
5. Warren, P. (no date) *A brief history of artificial intelligence (1956 to now)*, Codementor. Available at: <https://www.codementor.io/@paulwarren/a-brief-history-of-artificial-intelligence-1956-to-now-mgoracvnx>